O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA «MAKTABGACHA TA'LIM» TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich
Ilmiy rahbar: p.f.n dots
Musulmonova Viloyat Abduvaliyevna
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari, xususan, xoroj tajribalaridan foydalanish Finlandiya misolida ko'rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim xizmatlari, xizmat ko‘rsatish, ta’lim xizmati, rivojlantirish, islohot, innovatsiya, takomillashtirish, samaradorlik, xorij tajribasi.

Kirish Maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha keyingi yillarda mamlakatimizda ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan Qarorda “...nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1412 ta davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar imzolanganligi” [2] maktabgacha ta’lim tizimiga keng e’tibor berilayotganini namoyon etadi. Maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tadbiq etish bo‘yicha V.Stiven Barnettning “Kompensatsion erta bolalik ta’limining afzalliklari” nomli ilmiy maqolasida klassik eksperiment va foyda-xarajat tahlilini o‘z ichiga olgan uzoq muddatli ta’sirlar haqidagi tadqiqotlar olib borilgan. Kompensatsion erta bolalik ta’limi aql (IQ) testlari bilan yetarli darajada o‘lchanmaydigan kognitiv qobiliyatlarga hissa qo‘shish orqali uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatni ta’minlashi asoslab berilgan. Shuningdek, ta’limdagi ijtimoiyiqtisodiy natijalar, jumladan, bandlik, o‘smirlik homiladorligi va ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali maktabgacha ta’lim muassasalariga ta’sir etish jarayonlari o‘rganilgan [5].
M.X.Qilichova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari” nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Asosan rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalari shakllari va sharoitlari haqida ma’lumotlar keltirilgan hamda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiyaga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilgan [9]. Fikrimizcha, MTMlarni modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini xorij tajribasi asosida oshirish, ta’lim metodlarini samarali tashkil etish yo‘llarini ishlab chiqish, DXSh doirasida yangi MTMlarni tashkil etish hamda xususiy bog‘chalarni ochish jarayoniga imtiyozlar va alohida e’tibor berish, xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari barpo etishda “kraudfanding” raqamli platformasi orqali moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.
Ta’kidlash joizki “kraudfanding” raqamli platformasi orqali xalqaro, mamlakat va aholi yashash hududlarida aholining tashabbusi asosida MTMlarni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, shuningdek, yangi MTMlarni tashkil etish mumkin bo‘ladi. Ushbu raqamli platforma rivojlangan xorij mamlakatlarida ijtimoiy, mediya, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish sohalarini shakllantirishda aholi o‘rtasida raqamli platforma orqali ko‘ngillilar o‘zlari maqul ko‘rgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashi,

moliyalashtirishi, kapitalning ishlatish jarayonlarini kuzatib borishi hamda o‘zlarining fikr va takliflarini berishi mumkin bo‘ladi. Shu bois “kraudfanding” raqamli platformasi loyihalar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, 2018-yilda mamlakatimizda Xalq ta’limi vazirligi axborot xizmati tamonidan “kraudfanding” (xalq tomonidan moliyalash) raqamli platformasi “Mfond.uz” ishga tushirildi. Kraudfanding raqamli platformasi maktab rahbarlari uchun o‘quv muassasasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun homiylik mablag‘larini jalb qilishga qaratilgan bir vosita hisoblanib, jalb qilingan kapitalni ishlatishda ochiqlik va moliyalashtiruvchilarga hisobot berish ishlari joriy qilingan. Bunday tajribalardan unumli foydalangan holda amaliyotga joriy etish davlatimizdagi bir yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni milliy vatanparvarlik ruhida, sog‘lom, teran fikrlaydigan komil inson sifatida shakllanishida munosib hissa qo‘shadi.
Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Maktabgacha Ta’lim muassasalari faoliyatini xorij tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatlarida bolalar asosan uch yoshdan bog‘chaga qabul qilinadi.
Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Finlyandiyaning Ta’lim va madaniyat vazirligi hamda Milliy ta’lim agentligi hamkorligida “Finlyandiya ta’lim dasturlarini o‘rganish: ta’lim dasturlari va o‘quv materiallari” mavzusida onlayn seminar tashkil etildi.

Tadbir davomida xorijlik mutaxassislar Finlyandiya ta’lim tizimi, milliy va mahalliy o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv materiallari va televideniye orqali dars beruvchi o‘qituvchilarni tayyorlash bilan bog‘liq qator masalalar bo‘yicha atroflicha ma’lumot berdi.

Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi ta’lim maslahatchisi Yorma Kauppinenning ta’kidlashicha, fin ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash bo‘yicha “boshi berk nuqta” mavjud emas. Yoshlar erta bolalik davridan boshlab, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasalarini bitirganidan keyin ham ta’limni davom ettirishadi.

Maktablarda dars soatlari 1-2-sinflar uchun haftasiga eng kamida 19 soat etib belgilangan, 9-sinflar uchun esa ushbu ko‘rsatkich 30 soat. Maktablar o‘quv rejasiga ko‘ra, to‘qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 222 soat. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 254 soatni tashkil etadi.

Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi o‘quv materiallari menejeri Syuzanna Byorkell mamlakatda o‘quv materiallari (darslik, qo‘llanma)ni tayyorlash tizimi haqida ma’lumot berdi.

Ta’kidlanishicha, Finlyandiyada o‘quv materiallari milliy o‘quv dasturiga asoslangan holda davlat tili — fin yoki shved tilida tayyorlanadi. Har bir o‘quv materialini o‘quv jarayoniga tatbiq etish pedagogik asosga ega ekaniga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘quv materiallarini tayyorlashda mamlakatdagi umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim muhiti va o‘qitish bo‘yicha maslahatlar va o‘qituvchilar uchun alohida materiallarning mavjudligi hisobga olinadi.

Shuningdek, o‘quv dasturlarining ta’lim jarayonlariga tatbiq etilishida an’anaviy darsliklar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan elektron qo‘llanmalar hamda turli formatdagi materiallardan ham keng foydalaniladi.

Xususan, Finlyandiya davlat teleradiokompaniyasi va ta’lim agentligi hamkorligida o‘qituvchilar kundalik hayotini mazmunli o‘tkazishi, o‘zini o‘zi rivojlantirishi va boshqa o‘qituvchilar bilan o‘zaro muloqot qilishi uchun alohida telekanal tashkil qilingan. Telekanal dasturlari asosan yoshlarda media va raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati, ta’lim olish, tillarni o‘rganish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda Finlyandiyada qo‘llanayotgan o‘quv dasturlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, izchillik bilan o‘rganilmoqda. Mazkur jarayonda Finlyandiya ta’lim tizimining mahalliy sharoitga mos jihatlari yangilanadigan o‘quv dasturlariga singdiriladi.

Seminar davomida Ta’lim inspeksiyasi mutasaddilari va ekspertlarning ushbu o‘quv dasturlari va darslik bo‘yicha o‘zlarini qiziqtirgan qator savollarga finlyandiyalik mutaxassislardan atroflicha javob olishdi.

Tadbir yakunida muhokama qilingan masalalar bo‘yicha hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya ta’lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. Fin o‘quvchilari ham ta’lim sifati bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda.

Finlyandiyaning asosiy ta’lim to‘g‘risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta’limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

1. **O‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berish;**
2. **Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ‘ib qilish hamda;**
3. **Butun mamlakat bo‘ylab ta’lim sohasida tenglikni ta’minlash.**

Maktablarda haftasiga 5 kunlik o‘qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko‘ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga ajratib o‘qitilmaydi.
Fin maktablarida boshlang‘ich ta’lim 6-yil davom etadi va 3-sinfgacha bolalarga baho qo‘yilmaydi, o‘qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017-yildan aksariyat maktablar dars vaqtida «ruchkadan voz kechishgan” va dars jarayonida to‘liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.

Faqatgina juda majbur bo‘lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin [9]. Shuningdek, Yaponiyada bolalar bog‘chasiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki, bunday yoshda bolani bog‘chaga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabablar bo‘lishi kerak. Shuningdek, Singapurda ham maktabgacha ta’limi, ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bog‘chaga bolalar uch yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o‘qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o‘rgatiladi va shakllantiriladi. Shuningdek, Singapurda davlatga qarashli bog‘chalar yo‘q. Maktabgacha ta’lim muassasalarining barchasi xususiy bo‘lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi. Shu bilan birgalikda Xitoy tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, xitoyliklar bog‘chalarga uch oyligidan berishadi. Bunda farzand tarbiyasiga beriladigan asosiy mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat fazilatlariga alohida e’tibor berishadi. Bu esa xitoyliklarni

intizomli bo‘lishida munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Angliyada maktabgacha ta’lim o‘quv rejasida nafaqat umumiy ta’lim jarayoniga urg‘u beriladi, bunda boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi.

Bunday xorijiy tajribalardan shuni hulosa qilish mumkinki bunda, har bir rivojlangan xorij mamlakatlari ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor berishini, o‘z mintalitetidan kelib chiqib tarbiya yo‘nalishlarini belgilashi, maktabgacha ta’lim muassasalarida yangi xizmatlarni shakllantirishda alohida metodlarni ishlab chiqganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz davomida maktabgacha ta’lim muassasalari xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tahlil qilishimiz natijasida MTMlarni rivojlantirish bosqichini ikki guruhga bo‘lishimizni taqozo etmoqda. Birinchi guruhga MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, modernizatsiya qilish, imtiyozli kreditlar berish, shuningdek, davlat tamonidan huquqiy bazasini takomillashtirish jarayonlarini o‘z ichiga olsa, ikkinchi guruhga ta’lim-tarbiya berish, kadrlar malakasini oshirish, ta’lim-tarbiya berishni milliy modeleni ishlab chiqish va bolalarni vatanparvar qilib tarbiyalash kabi vazifalardan iborat bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mamlakatimizda maktabgacha ta’lim xizmatlarini samarali tashkil etish uchun MTMlarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy bog‘chalarni guruhli tizimini tashkil etish, davlat MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, MTMlarni modernizatsiya qilish, malakali kadrlarni jalb qilish, faoliyat ko‘rsatyotgan tarbiyachi-xodimlarni zamon talablariga mos holda malakasini oshirish, ta’lim-tarbiya berishni “O‘zbekona” modelini ishlab chiqish, bunda, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimizdan kelib chiqib maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini vatanparvar shaxs sifatida shakllanishida xizmat qiladigan omillarni hisobga olgan holda tarbiya berishni shakllantirishimiz lozim. Ushbu jarayonlarni tadbiq etish mamlakatimiz yoshlarini komil inson sifatida ulg‘ayishi hamda mamlakatimiz rivojiga hissa qo‘shishadigan kadrlar yetishib chiqishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berdik:

Birinchidan, mamlakatimizda mavjud MTMlarni davlat tassarufidan bosqichmabosqich chiqarish. Bunda xususiylashtirilgan MTMlarni oilaviy, kichik, o‘rta va katta shakldagi MTMlarga aylantirish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida ushbu sohaga DXSh dasturlarini keng jalb qilish. Bunda kam ta’minlangan, temir daftarda turuvchi hamda daromadi kam aholi farzandlariga DXSh doirasida tashkil etilgan MTMlar xizmatlarini taklif etish va tashkillashtirish;

Ikkinchidan, rivojlangan xorij mamlakatlar maktabgacha ta’lim xizmatlaridan xulosa qilgan holda MTMlarni moddiy texnik bazasini yangilash, zamonaviy ta’lim-tarbiya usullarida ta’lim berish jarayonlarini tashkil etish, MTMlarda ikki yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun maxsus tarbiya berish kurslarini shakllantirish hamda tarbiya oluvchilarga ularning qiziqish doirasidan kelib chiqib komil inson sifatida shakklanishida ta’lim-tarbiya berishni joriy etish;

Uchunchidan, maktabgacha ta’lim xizmatlarini samarali shakllantirishda xorij tajribasiga tayangan holda ta’lim-tarbiya berishning “O‘zbekona” modelini ishlab chiqish.

Bunda modelning ishlash maqsadi tarbiyalanuvchilarga badantarbiya, adabiyotshunoslik, matematika fanlariga ixtisoslashgan shaklda ta’lim-tarbiya berishni olib borish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimiz, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish hislatlarini barpo etish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslangan vazifalarni qamrab olishi darkor;

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari sohasi faoliyati, ta’lim-tarbiya jarayoni, sohani qo‘llab-

quvvatlashning qonunchilik bazani takomillashtirish;
Beshinchidan, qishloq, mahalla, pasyolka, kichik shaharlar hamda katta shaharlarda yashash hududlarida raqamli “kraudfanding” raqamli platformasi orqali hayriya mablag‘lari asosida yangi turdagi MTMlarni qurish, mavjud MTMlarni modernizatsiya qilish hamda faoliyat ko‘rsatayotgan MTMlarni o‘quv qurollari, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash.
Ushbu taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy yetilishi orqali mamlakatimiz rivojlanishi uchun xizmat qiladigan vatanparvar insonlarni yetishib chiqishida, yangi ish o‘rinlarini yaratishda hamda bobolarimizdek buyuk insonlarni shakllanishida muhim hissa qo‘shgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-sonli Qarori. 2016 yil 29 dekabr. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 12 apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5071-son Qarori. www.lex.uz
3. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” -T.:—O‘zbekiston, 2021. 23bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019 yil 8 may. www.lex.uz
5. В. Стивен Барнеттнинг “Компенсацион эрта болалик таълимининг афзалликлари”. https://www. Jstor .org/стабилный/145736